XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-030-4-63-K/24 Mirishkor tumani

Mirishkor tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddasining 2-bandi, Byudjet kodeksining 27, 99-moddasining 9-bandi, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 26- dekabrdagi VII-5-035-4-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Iqtisodiyot va moliya bosh vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26816-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-035-4-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Mirishkor tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **103198784,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **103198784,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar (yakka tadbirkorlar) daromadidan olinadigan qat’iy belgilangan soliq;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

-noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

-aylanmadan olinadigan soliq;

-davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Soliqlarning quyidagi turlari viloyat byudjeti hamda tuman va shaharlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

-benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchilarga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

-yuridik shaxslarning foyda solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

-benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

-alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘i;

-davlat bojlari;

-jarimalar;

-yig‘imlar;

davlat unitar korxonalari dividend tushumlari va boshqa tushumlar.

Tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi ulushlarda:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 58 foizi, Toshkent viloyatida 44 foizi, Toshkent shahrida 10 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

-foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 58 foizi, Toshkent viloyatida 44 foizi, Toshkent shahrida 10 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi; alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar tuman va shaharlar byudjetlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

-tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

-daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

-ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga;

-ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 1,3 baravarigacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar byudjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga yo‘naltirishi ta’qiqlanadi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika byudjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy byudjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga o‘tkaziladi.

Byudjet tizimi byudjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli byudjet tizimi byudjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024-2025yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

Quyidagilar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan moliyalashtiriladi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash-tiklash ishlariga doir xarajatlar;

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

sog‘liqni saqlash tizim tashkilotlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Quyidagilar respublika budjetidan moliyalashtiriladi:

kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalarini va moddiy yordamni to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga doir xarajatlar;

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari

huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarini, shuningdek suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarini saqlash xarajatlari.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari tomonidan shakllantirilgan tariflar narxlarni tartibga soluvchi organlar tomonidan ko'rib chiqiladi hamda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlari bilan ma'qullanganidan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo'llanilishi natijasida ko'rgan zararlarining o'rnini qoplash uchun qo'shimcha mablag'larga bo'lgan talab Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

4. Quyidagilar:

Mirishkor tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilova**ga;

Mirishkor tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **2-ilova**ga;

Tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari **4-ilova**ga;

Bunda, ajratma meyorlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Qashqadaryo viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining 2025-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Tuman mahalliy byudjeti zahira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **1448889,0 ming so'm** miqdorida belgilansin. Bunda:

tuman mahalliy byudjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

8. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari)

mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga**, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar **9-ilovaga**, tumanning 2025-yilda soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasining qat’iy belgilangan miqdorlari **10-ilovaga** 2025 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **11-ilovaga** hamda Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **12-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Sariqov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Shukurov), tuman soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov) tumandagi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Tuman hokimligi hamda barcha mas’ul tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Mirishkor tuman bo‘limi (I.Samiyev), tuman soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Kadastr agentligining Mirishkor tuman bo‘limi (B.Xosiyatov), tuman Kadastr palatasi bo‘limi (M.Tursunov) va tegishli ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

14. Mirishkor tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (N.Elmurodov) va tuman soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov) tumandagi ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman ichki ishlar bo‘limi (G‘.Haydarov), adliya bo‘limi v.b (R.Axmadqulov) tumanda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Tuman soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov), tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (J.Abdinazarov) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvoffiq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko‘rsinlar.

17. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi hamda ma’sul tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchilar hamda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

19. Tuman hokimligi va ma’sul tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Sariqov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari туман Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganli ma’lumot uchun qabul qilinsin.

21. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Yazdurdiyev), Davlat soliq inspeksiyasi (H.Oymaxmedov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Shukurov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

22. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvar kunidan boshlab kuchga kiradi.

24. Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kegashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Mirishkor tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-50-150-4-63-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Sariqov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Sariqov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



G‘ULOMOV
FAYZULLO
QURBONOVICH

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2026-2027-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2026-yil	2027-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m			
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda			
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda			
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106	107	108
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	109	110	110
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	110	110	111

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Mirishkor tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari, jami	**103198784,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	4276 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	66612388,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadiga daromad solig‘i	812000,0
6	**Aksiz solig‘i, jami**	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1789537,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4644207,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5266 000,0
11	Qurilish materiallari bo ‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	180280
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6439372,0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovi	150 000,0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig‘imlar	
18	Xususiylashtirish	
19	Boshqalar	
JAMI		
20	Mobil aloqa xizmatlari	
21	Tamaki mahsulotlari	
22	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	
HAMMASI		

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yil uchun Mirishkor tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so'm

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mirishkor tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**103198784,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*19130287,0*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0,0*
	shundan:	0,0
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0,0*
3	Madaniyat bo‘limi	*7521953,0*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4941218,0*
5	Sport bo‘limi	*3886964,0*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2607580,0*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3668948,0*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*3367584,0*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2396304,0*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0,0*
11	Hokimyat	*41339495,0*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*134979,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*35687,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*27440545,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2002533,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1448889,0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*545155,0*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*39 923,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*505232,0*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	13793296,0
14	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Mirishkor tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

foiz hisobida

№	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Foyda solig'i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga			Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar
1	Mirishkor tumani	0%	10 0%	100 %	0%	0%	0%	10 0%	10 0%	0%	0%	10 0%	10 0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100 %	100 %	0%	50%	100%	50%

№	Hudud nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga			Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar								
1	Mirishkor i tumani	0%	70 %	100 %	30 %	10 0%	10 0%	0%	0%	10 0%	10 0%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100 %	0%	0%	100 %	0%	100%	0%	100%

Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag'lar to'liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladi;

2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig'imlar (3 422 203) bo'yicha tushumlar to'liq tegishli tumanlar va shaharlarlar mahalliy bdjetlariga yo'naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me'yorlarga asosan taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Mirishkor tuman mahalliy byudjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Mirishkor tumani	**103198784,0**	**103198784,0**

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yilda Mirishkor tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byu kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Mirishkor tumani	645208,0

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Mirishkor tumanida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient

T.R	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (ming.so‘m)
1	Mirishkor tumani	0,80	31680,0

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Mirishkor tumanida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda
1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsient

T.R	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘m)
1	Mirishkor tumani	0,70	246,0

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Mirishkor tumanida ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsient

T/r	**Hudud nomi**	**Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 2025 yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbattan qo‘llaniladigan** (Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub’ektlardan tashqari)	
		Koeffitsent miqdori	**Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so‘mda)**
1	Mirishkor tumani	0,70	910 000,0

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mirishkor tumanida 2025-yilda soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasining qat’iy belgilangan miqdorlari

T/r.	Hududlar	Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)					
		Chakana savdo:			Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari	Boshqa faoliyat turlari	
		oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	*dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan*	*gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan*		3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun
10	Mirishkor tumani	300 000,0	70 000,0	70 000,0	70 000,0	200 000,0	300 000,0

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Mirishkor tumanida 2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/r.	Hududlar nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
1	Mirishkor tumani	1,10	6 050,0	1,20	13 200,0

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-4-63-K/24 -son qaroriga
12-ilova

Mirishkor tumanida Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**2025 yil koeffitsiyent miqdori**				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Mirishkor tumani	1,10	1,10	1,15	1,10	1